

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA OILA TASAVVURINI

SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Matismonova Durdona Rustam qizi

Guliston davlat universiteti Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya:

Inson borki, oilada tug'iladi, voyaga yetadi. Oilalardan jamiyat tashkil topadi. Baxtli va farovon oilalar ko'paysa, jamiyat rivojlanadi. Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon. Mazkur maqola ham mana shunday muhokamalar asosida, shuningdek, oliy ta'lif muassasalari talabalarida oila tasavvurini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari haqida ilmiy mulohazalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar:

Oila erkak va ayol o'rtasidagi rasmiy nikohga asoslangan, ota-onasi va farzandlar o'rtasidagi munosabatlardan tashkil topgan, jamiyatning axloqiy me'yorlari va qoidalari qo'llab-quvvatlanadigan, insoniyat madaniyatini kelajak avlodga yetkazib beradigan va uni rivojlantiradigan birlamchi ijtimoiy guruhdir. Darhaqiqat, globallashuv jarayonlarining jadallahushi oilaviy qadriyatlarning himoya qilinishini ham kun tartibiga qo'ymoqda.

Jamiyatda zamонавиу тэндентсијалар: iqtisodiy integratsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taraqqiy etishi va global Internet tarmog'ining keng quloch yoyishi bilan oilaviy munosabatlar madaniyatining pasayishi va an'anaviy qadriyatlarga nisbatan oila a'zolarida yangicha munosabatning shakllanishiga ta'sir qilmoqda. Shu tufayli bugungi kunda talabalarni oila tasavvurini shakllantirish tasodifiy faoliyat bo'lmay, balki ilmiy asosga va mustahkam amaliyotga tayanadi. Bu muammoga doir umumiy o'rta ta'lif maktablari misolida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha bir muncha ilmiy ishlar olib borilgan, ammo talaba yoshlarni oila tasavvurini shakllantirish muammosi nazardan chetga qolgan. Olib borilgan monografiya ishlari, dastur va o'quv qo'llanmalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, umumiy o'rta ta'lif tizimida o'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning o'ziga xos yo'llari, metod va usullari borasida ma'lum tajribalar mavjud. Bu tajribalar yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bir muncha yordam beradi. Chunki yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash uzluksiz bo'lib, uni izchil davom ettirish va ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish zamon talabidir. Aslida o'zaro oilaviy munosabatlarning turli ko'rinishlari baxtlilik hissining paydo bo'lishiga, zo'riqishni bartaraf etishga va salomatlikni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin ekani olib borilgan tadqiqotlar natijalarida o'z isbotini topmoqda. Oila qurgan insonlar turmush qurmagan yoki turmushi buzilgan, turmush o'rtog'i o'limi sababli yolg'iz qolgan insonlarga nisbatan kamroq ruhiy buzilishlarga chalinar ekanlar. Ayrim tadqiqotlar

shuni isbotladiki, umuman turmush qurmagan erkaklar oilali erkaklarga nisbatan ruhiy buzilishlarga chalinish ehtimoli 3,13 marta yuqori bo'lar ekan. Ayrim sabablarga ko'ra alohida yashovchi er va xotin, turmush qurmagan, yoki turmushi buzilgan, turmush o'rtog'i o'limi sababli yolg'iz qolgan insonlar yo'qotish hissini sezadilar va bu holat albatta ularning yolg'izlikda kechirgan dastlabki 1-3 yillari ichida depressiya holatining yuqori darajalarini namoyish qilishlariga sabab bo'ladi. Bunday vaziyatlar eng stressli vaziyatlar qatorida baholanadi. Yolg'iz odamlar, ko'pincha, bir o'zları yoki ota-onalari bilan birga yashaydilar. Bunday vaziyatda ota-onalar past darajadagi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasini namoyish qiladigan bo'lsalar, ular va farzand orasidagi nizolar turmush o'rtoqlar orasidagi paydo bo'lishi mumkin bo'lган nizolardan ko'ra ko'proq aziyat chekadilar

Umuman olganda, oliy ta'lim muassasasi talabalaridan olingan so'rovnomalar va yana qolaversa, turmush qurgan insonlar turmush qurmagan yoki turmushi buzilgan, turmush o'rtog'ining o'limi sababli yolg'iz qolgan insonlardan ko'ra baxtliroq bo'lar ekan. AQShda o'tkazilgan jami 58 ta ilmiy tadqiqotning xulosalari umumlashtirilganda olingan natijalar sub'ektiv baxtlilik hissi va oilaviy turmush o'rtasidagi o'zaro aloqani yolg'izlikka nisbatan olgan holda yuqoriligini ko'rsatdi. Erkaklar o'rtasida bu ko'rsatkich ayollarnikiga nisbatan ancha yuqori bo'lib, o'cta yoshli va qariyalarga nisbatan yoshlar orasida ham ancha yuqori ko'rsatkichni namoyon qilgan. Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha mashg'ulotlar butun guruh yoki guruhlar, ba'zilar yigitlar bilan, ayrimlari qizlar bilan alohida-alohida o'tkazildi. Lekin ular odatdagagi mashg'ulotlardan farq qilib, suhbatlar samimiyl, ishonchli, axloq meyorlariga to'liq itoat etgan holda olib boriladi. Bunday suhbatlarda talaba yoshlar oilasidagi ota - onalarining hatti harakatlari, oilalaridagi ahvol muhokama etilmasligi kerak.

Talabalar o'z oilasi, ota onasi haqida auditoriyadagi suhbatlardan o'zları xulosa chiqarib olishlariga turtki berish lozim. Talaba yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda mashg'ulotlarning samaradorligi ularni o'tkazishda qo'llangan ta'limning shakl va metodlariga bog'liq. Mashg'ulotlarning asosiy shakllari o'quv mashg'ulotlari, seminarlar va boshqalar bo'lishi mumkin. Ularga ko'tarinki ruh berish, talabalarning bu mashg'ulotlarga qiziqishini oshirish, muhokama etilayotgan mavzularni o'qituvchi bilan birlgilikda hal etish, dolzarb muammolar va ularni echishga doir vaziyatlar yaratish ham muhim hisoblanadi.

Talabalarda oila tasavvurini bilish hamda "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan o'tkazilgan sotsiologik taqiqotlardan olingan natijalar ham oila aholi uchun muqaddas institut sifatida o'z o'rnini saqlab qolayotganligini namoyon etdi. Jumladan, O'zbekistondagi oila qurishning asosida, eng avvalo, avlod qoldirish (37,1 foiz), sevimli kishisi bilan birga yashash (25,8 foiz) singari maqsadlar yotishi qayd etildi. Shuningdek, har to'rtinchi respondent (25,6 foiz) oila qurishda diniy qadriyatlardan kelib chiqqan holda asosiy maqsadini belgilaydi.

Tahlillar mamlakatimizda oilada turmush o'rtog'iga nisbatan an'anaviy o'zaro samimiylik va yaqinlikka asoslangan qarash ko'proq ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat beradi.

Respondentlarning qariyb uchdan biri, ya’ni 32,0 foizi o’z turmush o’rtoqlarini, birinchi navbatda, sevimli yor, 29,1 foizi esa oilaning boquvchisi, tayanchi, 10,0 foizi eng yaqin maslahatguyi sifatida talqin etadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijasida 27,5 foiz respondentlar uchun turmush o’rtog’i farzandlar uchun namunali ota yoki ona vazifasini bajarishi ma’lum bo’ldi.

Olingan natijalar tahlili oilalar uchun o’zaro hurmat, bir-birini tushunish va ishonch baxtli oilaning asosiy muhim indikatorilari ekanligini ko’rsatdi va respondentlar tomonidan qayd etilgan bu 3 parametrlarning umumiy yig’indisi 53,0 foizni tashkil etdi. Tadqiqot natijalari O’zbekistonda aksariyat oilalar o’zlarini baxtli oila sifatida tasavvur qilishlarini namoyon etdi. Jumladan, bu borada 81,4 foiz respondentlar o’zlarini to’liq baxtli, 13,4 foiz oila vakillari esa ma’lum ma’noda baxtli ekanliklarini bildirishdi.

O’tkazilgan tadqiqotlarimiz natijasida olingan tahliliy ma’lumotlar qadriyatlar tizimi borasida ham insonlar uchun oila eng muhim qadriyat sifatida qayd etilishini, ijtimoiy tarmoqlarda er yoki xotinning oilaviy hayotdagi tutgan o’rniga nisbatan noto’g’ri qarash va talqinlarning asossiz ekanligini yana bir bor isbotladi. Xulosa o’rnida aytib o’tish zarurki, oila va oilaviy munosabatlar, xotin-qizlarning huquqlari, tazyiq va zo’ravonlik kabi masalalarda ommaviy axborot vositalari orqali turli chiqishlar qilishda G’arb psixologik yondashuvi va millat tafakkur darajasi, sharqona tarbiya mezonlari o’rtasidagi farqli jihatlarni inobatga olgan holda yetkazib berish muhimligini e’tiborga olish zarurligini ko’rsatmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Oilani o’rganish psixodiagnostika metodikalari. /Tuzuvchilar: N. A. Sog’inov, F. G’. Habibullayev. — Toshkent, 2016. — 38b.
2. Oila axloqi va odobi: Majmua. T., 2005. — 200 b.
3. Oila psixologiyasi. (Shoumarov G’. B. tahriri ostida). T., 2000.
4. Yuz.uz
5. Nziyouz.com